ShaffofQurilish

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

**"FAYZ LOYIHA EKSPERT"
MCHJ**

Holati: Ijobiy
Direktor: Saidov Anvar Ozodovich
Sana: 27-06-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

247978 - SONLI

Obyekt nomi: Urganch shaxar, Gulchilar MFY, Al-Beruniy ko’chasi, 7A-uy 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasidan iborat 4 qavatli mansardli ko’p xonadonli turarjoy binosi» qurilish loyihasi	
Buyurtmachi:	M. Karimov
Bosh loyihachi:	"PERFECT-ART-PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov savdolari natijasi orqali
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	077442

1. Loyihalash uchun asos.

1. O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligining 2025.05.01 yildagi №1733-1733401-222742 – sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i.
2. Bin ova inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o’z xududida qo’shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 16.04.2025 yildagi 185822895-sonli Ruxsatnomasi
3. O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligining Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025.05.23 yildagi 192734504 – sonli xulosasi.
4. Ob’ekt O’zbekiston Respublikasi Qurilish bo’limi tomonidan tasdiqlangan Urganch shahar bosh rejasiga muvofiq joylashtirildi.
5. Davlat ekologik ekspertizasining 01.03.2024 yildagi 01-02/13-152 sonli ijobiy xulosasi.
6. O’zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati "GEOPLUS" MCHJ ning muhandislik-geologik tadqiqotlar natijalari bo’yicha texnik xisoboti.
7. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Xorazm hududiy filiali urganch shahar elektr ta’minoti” 12.02.2024 yildagi № 113080384 - sonli texnik sharti.
8. “Xorazm suv ta’minoti” AJ Urganch shahar filialining 2.02.2024 yildagi № T-48 - sonli texnik sharti.
9. “Hududgaz Xorazm” GTF Urganch shahar filialining 1.02.2024 yildagi № 053130- sonli texnik sharti.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko’ra «ishchi loyiha» ning elektron yo’nalishda taqdim qilingan loyiha
hujjatlari;
2. Energiya Samaradorligi bo'limi.
3. Bosh reja.

4. Quyosh panellari loyihasi.
5. Geologik qidiruv ishlari xulosasi.
6. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining ruxsatnomasi.
7. Tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
8. Davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi.
9. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommnal xo'jaligi vazirligi kengash xulosasi.
10. Tastiqlangan texnik shartlar (suv, elektor,gaz).
11. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
12. Teplotexnik issiqlik xisob kitobi.
13. Konstruktiv xisob kitob.
14. Arxitektura va qurilish yechimlari (ГП, АР, АС, ОВ, ВК, ЭО, ФЭС, ОПС, ЛВС и Телефон)

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

«"Urganch shaxar, Gulchilar MFY, Al-Beruniy ko'chasi, 7A-uy 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchasidan iborat 4 qavatli mansardli ko'p xonadonli turarjoy binosi" qurilish loyihasi.» bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklidan iborat. Binoning rejadagi OS o'lchamlari:
10.6m x 35.6m.
Bino 4 qavat va mansard qavatdan iborat va 1-qavaat balandligi poldan shiftgacha: 3.4 m.
2-3-4-qavatlar 2.7m va mansard qavati balandligi 2.9m

Binoning mansard qavati xonalari tarkibi:

2-qavat xonalari tarkibi: "№1" xonadon Kirish joyi– 7.70 m^2; oshxona – 7.40 m^2; yotoqxona – 12.00 m^2; umumiyxona – 16.30 m^2; xojatxona va dush– 3.80 m^2.
"№2" xonadon Kirish joyi– 7.90 m^2; oshxona – 8.20 m^2; yotoqxona – 13.30 m^2; umumiyxona – 17.20 m^2; xojatxona va dush– 3.6 m^2.

3.1. Qurilish maydonchasining geologik xususiyatlari.
Loyiha qishki havo harorati -18 C bo'lgan I- bino-iqlim zonasida qurilish uchun ishlab chiqilgan.
Loyihani ishlab chiqishda quyidagi ma'lumotlar olindi:
- qor qoplamining me'yoriy og'irligi - 50 kg/m^2;
- standart tezlik shamol bosimi - 38 kg/m^2;
- Qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball;
- Yong'inga chidamlilik darajasi - II;
- Tuproqning mavsumiy muzlashining me'yoriy chuqurligi – 0.68 m;

Tuproqlar to'ldiruvch - Er osti suvlarining taxminiy maksimal darajasi – 3.0-3.1 m bo'lishi kutilmoqda.
II darajali bino.
Tuproqlar to'ldiruvchi emas, seysmik xususiyatlarga ko'ra - III toifa.
Tuproqla va er osti suvlari portlendsement betonlari, (QMQ 2.03.11-96) portlendsement shlaklari va sulfatga chidamli sementlarga nisbatan o'rtacha agressivdir. Bino QMQ 2.01.03-19 ga asosan to'g'ri loyihalangan.
Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan ximoyalashda QMQ 2.03.11-96 dan foydalanilgan.

3.2. Bosh reja.
Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan –bo'sh yer maydoni bilan chegaralangan; Janub tomondan – Turar-joy binolari bilan chegaralangan; Sharq tomondan – Turar-joy binolari bilan chegaralangan; G'arb tomondan – bino va inshootlar bilan chegaralangan.

Asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Umumiy maydon	- 400.00 m^2
Qurilish osti maydoni	- 396.00 m^2

Loyihalashtirilgan ob'ekt: O'zbekiston Respublikasi Urganch shahar bosh rejasiga muvofiq joylashtirildi.

3.3. Asosiy loyihaviy yechimlar.

Vertikal sxemasi 1:500 masshtabdagi topografik suratga olish asosida tuzilgan va qo'shni hudud bilan bog'langan. Avtomobillarni saqlash joyi mavjud. Mashina joylarini belgilangan normalarga (SHNQ 2.07.05-22) yetkazgan holda loyihalashni imkoni bo’lmagan taqdirda, loyihalashtirilayotgan ob’ektdan 500 metrgacha uzoqlikda joylashgan hududdagi avtomobillarni saqlash joylaridan foydalanishga ruxsat etiladi.

3.4. Yong’in xavfsizligi:

Ushbu loyiha xavfsizlik yuzasidan yong’in signalizatsiya tarmoqlarini ko’zda tutadi. Yong’in xavfi bo’yicha bino toifasi- II. Tizimning qabul qiluvchi qurilmasi sifatiga “Grant-magistr-6” qurilmasi qabul qilingan bo’lib, devorga poldan balandligi 1.5 m bo’lgan balantlikda o’rnatiladi. Yong’in signallari ishga tushishi uchun "ИП-212-141" tutun detektorlari, "ИП 106" issiqlik detektorlari va “ИПР-513-10” qo’l detektorlari qabul qilingan. Qo’l detektorlari poldan 1.5 m balandlikda o’rnatiladi.

Yong’in signalizatsiyasi bilan jihozlanishi kerak bo’lgan xonalar QMQ 2.08.02-96 talablariga muvofiq belgilanadi.

Ob’ekt SHNQ 2.02.01-04 “Bino va inshootlarning yong’in xavfsizligi” talablariga javob beradi.

Xududga kirish va chiqish yo’llari mavjud bo’lib, o’t o’chirish mashinalarini bino va inshootlarga borishi ta’minlangan.

Favqulodda tutunga qarshi ventilyatsiya SHNQ 2.01.02 va SHNQ 2.04.05 larga muvofiq loyihalangan.

Yong’inga qarshi gidrant – 1 ta.

3.5. Konstruktiv yechimlar:

Fundament (Фундамент) – yaxlit monolit temirbeton M200.

Devorlar (Стены) – pishgan g’ishtdan M75, rastvor M25 qalinligi 380 mm

Sarbasta (Перемычки) –monolit temirbeton M200

Orayopma (Перекрытие) – ko’p g’ovakli prefabrik temirbeton

Tomyopma (Покрытие) – ko’p g’ovakli prefabrik temirbeton

Tomqoplamalar (Кровля) – yog’och konstruksiya

Rama – monolit temirbeton M250

Pollar (Полы) – keramik plita, laminat

Oyna (Окна) – plastik tipa “IMZO”

Eshiklar (Двери) – MDF,Alyuminiy profil “IMZO”, Temirdan

Ichki pardozlash (Внутренняя отделка)**.**

Barcha xonalarda devor va pardevorlar gips bilan yaxshilangan suvoq qilinib va so’ngra suvga asoslangan bo’yoq bilan qoplangan.

Tashqi pardozlash (Наружна яотделка)**.**

Yuqori sifatli tsement-qumli ohak bilan yaxshilangan gips, so'ngra fasad bo’yog’i bilan bezatilgan.

Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar:

Foydali maydon	- 1173.4 m^2
Qurilish osti maydoni	- 396.0 m^2
Qurilish xajmi	- 7846.5 m^3

3.6. Atrof-muhit muxofazasi.

Ob’ekt xududi obodonlashtirlgan va ko’kalamzorlashtirilgan.

Qurilish boshlashdan oldin, unumdor tuproq qatlami kesilib, keyingi melioratsiya uchun ishlatiladi.

Chiqindilarni yig’ish joylari ob’ekt xududida ajratilgan.

Yer bilan tegib turgan inshootlar, tuproq va yer osti suvlarining agressivligini xisobga olgan xolda izolyatsiyaga ega. Aholi salomatligini saqlash ko’zda tutilgan СанПиН norma va qoidalariga amal qilingan holda loyihalash ishlari olib borilgan. Axlat tashlash joyi mavjud sanitar zonalarga bo’linishi ko’zda tutilgan.

3.7. Energiya samaradorligi choralari.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220 sonli Farmoni O’zRBMning 02.06.2011 yildagi 161-sonli talablariga muvofiq ob'ektning energiya samaradorligi bo'yicha zamonaviy yechimlarni taqdim etish, energiya tejaydigan lampalar, zamonaviy issiqlik izolyatsion materiallar va ikkita kamerali oynali PVX derazalardan foydalanishni ta'minlash. Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda QMQ2.01.18.2000* “Qurilish issiqlik energiyasi”ga ko'ra issiqlik himoyasining 2-darajasi talablari asosida energiya samaradorlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutish va ob’ektlarni energiya resurslarni o'lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo'yicha talablar majburiydir. Energiya samaradorlikni ta’minlash uchun yuqoridagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan.

Tashqi devorlar qalinligi 50 mm, zichligi 110 kg/m3 bo’lgan bazaltga asoslangan mineral paxta bilan izolyatsiya qilingan.

– tomda umumiy 13 ta quyosh panellari (550 Vt) o`rnatilgan. Maksimal kuchi 6.5 kVt.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.
Loyihaning ushbu bo'limi texnik shartlar va manfaatdor tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq ob'ektni muhandislik ta'minotini nazarda tutadi Elektr jixozlash va yoritish. Quvvat tarqatuvchi sifatida shitlar xizmat qiladi.
Loyihaning keyingi bosqichida yoritgich sifatida energiya tejamkor LED yoritgichlaridan foydalanish tavsiya etiladi.
Elektr ta’minoti.
Ushbu loyiha ГИП ning loyiha topshirig’i asosida amalga oshiriladi va tegishli bo’limlar amaldagi normalar, qoidalar va standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Loyiha elektr yoritish, isitish va elektr jihozlarini ko’zda tutadi. Tarmoq kuchlanishi 220V. Elektr ta’minoti ishonchlilik darajasiga ko’ra III toifa. Kirish moslamasi sifatida ЩУЭ qabul qilingan. Barcha ishlatilgan materiallar va montaj ishlari loyihada batafsil ko’rsatib o’tilgan.
Barcha jihozlarni va elektr tarmog'ini o'rnatish PUE, QMQ va PTB ga va qurilish qoidalariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.
Isitish va shamollatish.
Loyihaning ushbu qismi KMK 2.01.04-97* Qurilish isiqlik muxandisligi, KMK 2.04.05-97 Isitish, shamollatish va havoni tozlash, KMK 2.08.02-02-96 Jamoat binolari va inshootlari va talablariga muvofiq amalga oshiriladi. Quvurlar shisha tolali polipropilendan tayyorlangan. Binoda shamollatish tabiiy va mexanik tarzda amalga oshiriladi. Shamollatish tizimini o’rnatish KMK 2.04.05-97 ga muvofiq amalga oshiriladi.
Suv ta’minoti va kanaizatsiya.
Loyihaning ushbu qismi loyiha topshirig’iga asosan QMQ 2.04.01-98, QMQ 3.05.01-97 ga muvofiq ishlab chiqilgan.
Loyihada ob’ektni mavjud tashqi tarmoqqa ulash ko’rsatilgan. Ichimlik suvidan foydalanishda, yoqib-o’chirishda avtomatik bosimni rostlagich bilan jixozlangan. Tarmoqdagi barcha issiq va sovuq suv quvurlar yashirin xolatda bajarilgan. Barcha ishlatilgan materiallar va montaj ishlari loyihada batafsil ko’rsatib o’tilgan.
Kanalizatsiya – Loyiha ishlari qilinishi kutilayotgan hududda markazlashgan kanalizatsiya tizimi mavjud emas. Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini o’rnatish QMQ 3.05.01-97 talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.
1. Loyihaning ishchi qismi buyurtmachi bilan kelishilgan.
2. Urganch shahar xokimi bilan kelishilgan.
3. Urganch shahar xokimi o’rinbosari bilan kelishilgan.
4. O’zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi vazirligining obyektni Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o’z xududida qo’shimcha bino va inshootlarni qurish uchun Ruxsatnomasi.
5. Urganch shahar qurilish va uy-joy kommunal bo’limi boshlig’i bilan kelishilgan.
6. “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ “Xorazm hududiy filiali urganch shahar elektr ta’minoti” texnik sharti.
7. “Xorazm suv ta’minoti” AJ Urganch shahar filiali texnik sharti.

8. “Hududgaz Xorazm” ta’minoti boshlig’i bilan kelishilgan.
9. Kadastrlar palatasi Urganch shahar bo’limi boshlig’i bilan kelishilgan.
10. Urganch shahar SEO va JSB bosh vrachi bilan kelishilgan.
11. Urganch shahar FVB boshlig’i bilan kelishilgan.
12. Urganch shahar “Ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish” inspeksiyasi ijobiy xulosasi
13. Gulchilar MFY raisi bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

«Konstruktiv qism»

1. Ishchi loyiha tegishli tartibda tasdiqlansin.
2. Isitish va shamollatish tizimi loyihalansin.

Xato va kamchiliklar bartaraf qilindi.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalari xisobga olgan holda **« Urganch shaxar, Gulchilar MFY, Al-Beruniy ko’chasi, 7A-uy 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchasidan iborat 4 qavatli mansardli ko’p xonadonli turarjoy binosi» qurilish loyihasi.** Ishchi loyiha amaldagi zilzilabardoshlik, yong'in xavfsizligi, atrof-muhit muxofazasi, energiya samaradorligi standartlariga mos keladi va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentyabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-bandiga muvofiq exspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma’lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli, 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori va SHNQ4.01.16-09 ga muvofiq tanlov savdolarini o’tkazish uchun obyektning qiymati buyurtmachi tomonidanbelgilanadi.

7.3. Buyurtmachi ekspertizaning izoxlari bo’yicha tuzatilgan loyiha-smeta xujjatlarini bosh pudratchi
tashkilotga o’tkazilishini ta’minlaydi.

7.4. O’z.R. Vazirlar Mahkamasining 17.09.2021 yildagi 579-sonli qarorini 5-bob 36-bandiga asosan ushbu ekspertiza xulosasi berilgan sanadan boshlab 2 yil davomida amal qiladi.

AR. bo’yicha mutahasis: Saidov M.

AS. KJ bo’yicha mutahasis: Jumaniyazov S,

EO. VK. OV bo’yicha mutahasis: Rajabov U,
PS bo’yicha mutahasis: Razakov R.